BILINGVAL BOLALAR LEKSIK RIVOJLANISHI: MONOETNIK VA BIOETNIK OILALAR MISOLIDA

Muslimova Khumora Shavkatjonovna
Farg‘ona shahar 2- IDUM
Ingliz tili fani o‘qituvchisi
ORCID ID: 0009-0002-2917-3848

Annotatsiya
Mazkur tezisda bilingval bolalarning leksik rivojlanish jarayoni, hususiyatlari va oilaviy muhit omillari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda monoetnik va bioetnik oilalarda til o‘zlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, lug‘at boyligining shakllanish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning til rivojlanishi bevosita u yashayotgan til muhiti va muloqot darajasi bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: *bilingvizm, leksik rivojlanish, oilaviy muhit, monoetnik oila, bioetnik oila, lug‘at boyligi.*

Bilingvizm tushunchasi va uning ilmiy talqini

Bilingvizm, ya’ni ikki tillilik lisoniy hodisa bo‘libgina qolmay, balki murakkab kognitiv va ijtimoiy tizim bo‘lib, u inson tafakkuri, neyrofiziologiyasi va jamiyatdagi o‘zaro ta’sir jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bugun zamonaviy tilshunoslik bilingvizmni ko‘p qirrali neyropsixolingvistik va ijtimoiy hodisa sifatida ham o‘rganmoqda. Dastlabki, ilmiy yondashuvlarda bilingvizm qat’iy mezonlar asosida izohlangan. Xususan, Leonard Bloomfield ushbu tushunchani ikki tilni ona tilidek mukammal egallash sifatida ta’riflagan [1] . Biroq, keyingi tadqiqotlar esa bu yondashuvning chegaralanganligini ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda bilingvizmni yanada kengroq talqin qilinganligini ko‘rish mumkin. François Grosjeanning fikriga ko‘ra, “bilingval shaxs ikki alohida monolingval tizim egasi emas, balki yagona, integratsiyalashgan til tizimiga ega bo‘ladi”[2]. Olimning bu yondashuvida tilning funksional qo‘llanishi asosiy mezon sifatida qaraladi.

Ma’lumki, bilingval bolalarda til egallash va o‘zlashtirish jarayonlari murakkab psixolingvistik mexanizmlar orqali amalga oshadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ikki tilni bir vaqtda o‘zlashtirayotgan bolalarda kognitiv jarayonlar o‘ziga xos tarzda rivojlanadi. Ellen Bialystok olib borgan tadqiqotlarga ko‘ra, “bilingval bolalarda ijro nazorati va e’tibor boshqaruvi yuqori darajada rivojlangan bo‘ladi”[3] Bu holat esa ularda ikki til o‘rtasida doimiy tanlov qilish zarurati borligi bilan izohlanadi. Annick De Houwer esa bolalarning bilingval shaxs sifatida rivojlanishda oilaviy til siyosatining ahamiyati va ta’siri yuqori ekanligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, “ota-onalar tomonidan izchil til strategiyasining qo‘llanilishi bola tomonidan ikki tilni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga xizmat qiladi”[4].

[1] Bloomfield L. Language. – New York: Holt, 1933. – 56 b.
[2] Grosjean F. Bilingual: Life and Reality. – Harvard University Press, 2010. –2,4 b.
[3] Bialystok E. Bilingualism in Development. – Cambridge University Press, 2001. – 4,45 b.
[4] De Houwer A. Bilingual First Language Acquisition. – Multilingual Matters, 2009. – 5-96 b.

Bilingval bolalar leksik rivojlanishida nutqiy faoliyatida asosiy o‘rin egallaydi. Ushbu jarayon so‘zlarni o‘zlashtirish, ularning ma’nosini anglash va nutqda qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Eve Clark ta’kidlashicha, bolalar dastlab so‘zlarni konkret obyektlar bilan bog‘laydi, keyinchalik esa umumlashtirish jarayoniga o‘tadi[5]. Bu jarayon semantik rivojlanishning asosiy bosqichidir.

Ijtimoiy va madaniy integratsiya jarayonlari natijasida ikki tillilik holatlari kengayib bormoqda, bu esa bolalar nutqi va til rivojlanishini yangi nuqtai nazardan o‘rganishni talab qiladi. Ayniqsa, bolalarda lug‘at boyligining shakllanishi ularning yashash muhiti bilan uzviy bog‘liqdir. Bolalarning tilni egallash jarayoni ko‘p omilli bo‘lib, unda oilaviy muhit yetakchi rol o‘ynaydi. Shu jihatdan monoetnik va bioetnik oilalarni ajratib o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Bioetnik oilalarda bola ikki tilni bir vaqtning o‘zida, tabiiy muloqot jarayonida o‘zlashtiradi. Bunday sharoitda til o‘rganish maxsus o‘qitishsiz, kundalik kommunikatsiya orqali amalga oshadi. Natijada bola har ikki tilni turli vaziyatlarda erkin qo‘llay olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Monoetnik oilalarda esa til muhiti nisbatan bir xil bo‘lib, bola asosan bitta til asosida rivojlanadi. Ikkinchi til esa ko‘pincha maktab, bog‘cha yoki boshqa ijtimoiy institutlar orqali egallanadi. Shu sababli, bu jarayon ko‘proq ongli, bosqichma-bosqich o‘zlashtirish bilan tavsiflanadi. Mazkur farqlar bolalarning leksik rivojlanishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bioetnik oilalarda o‘sayotgan bolalar lug‘at boyligi ikki til o‘rtasida taqsimlangan holda rivojlanadi. Ular har ikki tilni faol qo‘llaganliklari sababli, umumiy leksik zahira kengroq shakllanishi mumkin.

Monoetnik muhitda esa ikkinchi til bo‘yicha lug‘at ko‘proq cheklangan bo‘lib, uning rivojlanishi asosan o‘quv jarayoni bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu esa tilning tabiiy emas, balki sun’iyroq o‘zlashtirilishiga olib keladi.

Ilmiy tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, bilingval bolalarda har bir til bo‘yicha lug‘at hajmi alohida baholanganida monolingval bolalarga nisbatan kichikroq ko‘rinishi mumkin. Biroq umumiy hisobda ularning leksik imkoniyatlari kengroq bo‘ladi. Ellen Bialystok tadqiqotlariga ko‘ra, bilingval bolalarning til imkoniyatlarini baholashda har bir tilni alohida emas, balki umumiy tizim sifatida ko‘rib chiqish zarur. Bu yondashuv ularning kognitiv rivojlanishidagi ijobiy jihatlarni ham ochib beradi. Shuningdek, François Grosjean tomonidan ilgari surilgan fikrga ko‘ra, bilingval shaxslar tillardan turli kommunikativ ehtiyojlarga qarab foydalanadi. Shu sababli, ularning til darajasi vaziyatga qarab farqlanishi tabiiy hisoblanadi.

Mazkur tahlillar asosida shuni hulosa qilish mumkinki, oilaviy muhit bilingval bolalarda leksik rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Monoetnik oilalarda til o‘zlashtirish ko‘proq ongli va tizimli tarzda kechsa, bioetnik oilalarda bu jarayon tabiiy va kommunikativ asosda shakllanadi. Ko‘rsatilgan farqlar esa bolalarning leksik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur natijalar kelgusida bilingval bolalar nutqini rivojlantirishga oid tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

[5] Clark E. V. The Lexicon in Acquisition. – Cambridge University Press, 1993. – 6-78 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Bloomfield L. Language. – New York: Holt, 1933. – 56 b.
2. Grosjean, F. (2010). Bilingual: Life and reality. Harvard University Press.
3. Bialystok, E. (2001). Bilingualism in development: Language, literacy, and cognition. Cambridge University Press.
4. Peal, E., & Lambert, W. E. (1962). The relation of bilingualism to intelligence. Psychological Monographs: General and Applied, 76(27), 1–23.
5. Clark, E. V. (2009). First language acquisition (2nd ed.). Cambridge University Press.
6. Kuhl, P. K. (2004). Early language acquisition: Cracking the speech code. Nature Reviews Neuroscience, 5(11), 831–843.
7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
8. De Houwer, A. (1990). The acquisition of two languages from birth: A case study. Cambridge University Press.